

ALIMENT UNDIRISH TARTIBI VA QONUNCHILIK ASOSLARI

Teshayeva Zuhra Sherbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: zuhrateshayeva2002@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15694928>

Annotatsiya: Aliment undirish masalasining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasidagi huquqiy asoslari va amaliy tartibi tahlil etildi. Asosiy e'tibor Oila kodeksining tegishli moddalari, Konstitutsiyaviy normalar hamda aliment undirishga oid sud qarorlari va ijro hujjatlari asosida ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlarini moddiy ta'minlash majburiyatiga qaratildi. Aliment miqdorini belgilash, uni to'lash tartibi hamda qonunchilikda belgilangan mas'uliyatlar aniq huquqiy asoslar orqali yoritib berildi. Ishda normativ-huquqiy hujjatlarga tayanilgan holda aliment instituti nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

Kalit so'zlar: Aliment, undirish, oila kodeksi, fuqarolik kodeksi, sud, ixtiyoriy to'lov.

Aliment majburiyatlari mulkiy huquqiy munosabatlar doirasiga kiradi, biroq ular o'ziga xos alohida belgilar va xususiyatlarga ega. Bu majburiyatlar fuqarolik huquqidagi oddiy majburiyatlardan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Asosiy farqlovchi belgilardan biri shundaki, aliment majburiyatlari qonunda qat'iy (imperativ) tarzda belgilangan asoslarga – qon-qarindoshlik aloqalari, mehnatga layoqatsizlik va moddiy muhtojlik holatlariga asoslanadi. Bundan tashqari, aliment to'lash bo'yicha o'zaro kelishuv ham ushbu majburiyatni yuzaga keltirishi mumkin.

Aliment majburiyatlari shaxsiy xarakterga ega bo'lib, bu majburiyatlar faqat muayyan shaxslarga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, aliment to'lovchining yoki oluvchining vafoti bilan bu majburiyatlar bekor qilinadi va meros yo'li bilan boshqa shaxslarga o'tmaydi. Shuningdek, bu majburiyatlar doirasida talabni boshqa shaxslarga o'tkazish yoki qarz shartlari qo'llanilmaydi. Aliment bepul asosda amalga oshiriladi va noto'g'ri undirilgan taqdirda ham qaytarilmaydi, faqatgina yolg'on ma'lumot yoki soxta hujjatlar asosida undirilgan holatlar bundan mustasno. Aliment majburiyatlari davomiy xarakterga ega bo'lib, ular kelajakdagi davrlar uchun har oy undiriladi. Masalan, voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment ularning voyaga yetgunlariga qadar to'lab boriladi.

Oila kodeksida aliment undirishni uch tartibi belgilangan bo'lib:

1. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzish (17-bob, 130-134-moddalar),
2. Alimentni ixtiyoriy to'lash (18-bob, 135-modda),
3. Alimentni sud tartibida undirish (18-bob, 136-modda).

Agar aliment to'lash bo'yicha taraflar o'zaro kelishuvga erishgan bo'lsa, bu holda sud orqali aliment undirishga ehtiyoj qolmaydi. Aliment majburiyati — bu qonunda belgilangan yuridik holatlar yuz berganida yuzaga keladigan huquqiy munosabatdir. Ya'ni, agar taraflar o'zaro kelishuvga erishgan bo'lsa yoki sud tomonidan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bir oilaning a'zolari boshqa oila a'zolarini moddiy ta'minlash majburiyatini oladi, bu esa ikkinchi tomonning aliment talab qilish huquqini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarorining 12-bandida ta'kidlanishicha, sudlar voyaga yetmagan shaxslarning ta'minoti uchun qo'shimcha xarajatlar undirilishi masalasini ko'rib chiqayotganda, Oila kodeksining 103-moddasida ko'rsatilgan holatlarni inobatga olishi lozim. Bunday favqulodda holatlarga

bolaning og'ir kasalligi, jarohat olishi kabi vaziyatlar kiradi. Shuningdek, bu xarajatlarning bola uchun zarurligini asoslash va taraflarning moliyaviy holatidan kelib chiqib, qo'shimcha xarajatlarning aniq miqdorini belgilash zarurligi qayd etilgan. Aliment undiruvi manbalari quyidagilardir:

1. Ish haqi va boshqa daromadi,
2. Kredit tashkiloti va bankdagi mablag'lar,
3. Shartnoma asosida o'tkazilgan pullar,
4. Undiruv qaratilgan boshqa mulklar

Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab yoki sudgacha ta'minot olish choralari ko'rilgan ammo uni to'lashdan bosh tortganlik holati isbotlansa o'tgan davr uchun (uch yillik muddat doirasida) undiriladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev J. Vorislik va oila huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. – 328 b.
2. Abdurahmonova X. Ota-ona va bolalar aliment huquqlari va majburiyatlarining kollizion tartibga solinishi. – Toshkent: TDYU, 2015.
3. Topildiyev B. Aliment majburiyatlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Afzalzoda books nashriyoti, 2024. – 140 b.
4. Otaxo'jayev F. Oila huquqi. – Toshkent: TDYU, 2005.
5. Otaxo'jayev F. Oila huquqi. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Otaxo'jayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. – Toshkent: Adolat, 2007.